

**HUQUQIY TARBIYA, HUQUQIY NIGILIZM VA HUQUQIY IDEALIZM**

*Ilmiy rahbar: Dilshod Yuldashevich Sattorov  
Bojxona instituti "Umum-huquqiy fanlar kafedrası"  
o'qituvchisi, dotsent*

**Amatov Zafarbek Zohidjon o'g'li**  
*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va  
Moliya Vazirligi huzuridagi  
Bojxona Qo'mitasining Bojxona Instituti  
Bojxona Ishi yo'nalishi 1-kurs 325-guruh kursanti*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 10.01.2026*

*Revised: 11.01.2026*

*Accepted: 12.01.2026*

**KALIT SO'ZLAR:**

*Huquqiy tarbiya,  
huquqiy ong, huquqiy  
madaniyat, huquqiy  
nigilizm, huquqiy  
idealizm, qonun  
ustuvorligi, jamiyat*

*Mazkur maqolada huquqiy tarbiya tushunchasi, uning huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, jamiyatda uchraydigan huquqiy nigilizm va huquqiy idealizm holatlarining mazmun-mohiyati, kelib chiqish sabablari hamda salbiy oqibatlari tahlil qilinadi. Muallif huquqiy tarbiya orqali huquqiy nigilizm va idealizmning oldini olish, aholining qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalanishini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratadi*

Bugungi globallashuv sharoitida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish huquqiy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va majburiyatlarga ongli munosabatini shakllantirish huquqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish bevosita huquqiy tarbiya darajasiga bog'liq. Shu bilan birga, huquqqa nisbatan noto'g'ri munosabatlar — huquqiy nigilizm va huquqiy idealizm kabi holatlar jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy tarbiya — bu shaxsda huquqiy bilimlar, qonunlarga hurmat, huquqiy mas'uliyat shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Huquqiy tarbiya orqali insonlarda qonunlarga itoatkorlik, huquqbuzarliklarga murosasiz munosabat hamda adolat tamoyillariga sodiqlik

qaror topadi. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida huquqiy tarbiyani kuchaytirish jamiyat barqarorligi uchun muhim omil hisoblanadi.

Huquqiy tarbiya jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Davlat va huquq nazariyasi olimlari huquqiy tarbiyani shaxsni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash, huquqiy normalarni anglash va ularga ongli ravishda amal qilishga yo'naltirilgan tizimli jarayon sifatida ta'riflaydilar. Jumladan, akademik A.X. Saidovning fikricha, huquqiy tarbiya fuqarolarda nafaqat huquqiy bilim, balki huquqiy mas'uliyat va ijtimoiy faollikni shakllantiradi. Mashhur rus huquqshunosi S.S. Alekseyev huquqiy tarbiyaning asosiy vazifasi sifatida huquqni shaxsning ichki e'tiqodiga aylantirishni ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, huquq faqat majburiy qoidalar majmui bo'lib qolmasdan, insonning hayotiy qadriyatlariga singib ketishi lozim. Bu esa huquqiy nigilizmning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy tarbiyani rivojlantirish borasida O'zbekistonda bir qancha islohotlar ham o'tkazilgan. Aniqroq aytadigan bo'lsak Yangilangan Konstitutsiyamizda fuqarolarimizning huquqiy ongi va madaniyatini tarbiyasini yuksaltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Chunonchi, uning 50-moddasida har kim ta'lim olish huquqiga egaligi, davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi, davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi mustahkamlandi. Bundan tashqari, «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» va «Inson huquqlarini o'rganish» maxsus o'quv kurslarini tashkil qilish, yangi avlod huquqiy darsliklari va o'quv qo'llanmalari tizimini yaratish, bunda umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun huquqiy bilimlarni sodda va ko'rgazmali o'rgatishga qaratilgan o'quv qo'llanmalarini, ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalari orasida huquq fanidan respublika miqyosida tanlovlarni tashkil qilish va o'tkazish alohida ahamiyat kasb etadi.

Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish maqsadida «O'zbekiston – 2030» strategiyasida belgilanishicha, nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari sonini 1000 taga yetkazish, nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar ulushini 3 barobarga oshirish, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'liq ta'minlash, advokatlar sonini kamida 2000 nafarga ko'paytirish rejalashtirilgan.

Huquqiy nigilizm — bu huquq va qonunlarning ahamiyatini inkor etish, ularga bepisand munosabatda bo'lishdir. Huquqiy nigilizm jamiyatda huquqbuzarliklarning ko'payishi, qonun ustuvorligining zaiflashuvi va fuqarolarning davlat institutlariga ishonchsizligiga olib keladi. Ushbu holat ko'pincha huquqiy bilimlarning yetishmasligi, adolatsizlikka duch kelish yoki huquqiy tarbiyaning sustligi natijasida yuzaga keladi.

Huquqiy nigilizm jamiyatda huquqiy qadriyatlarning inkor etilishi, qonunlarga ishonchsizlik va huquqiy normalarga bepisand munosabatda bo'lishda namoyon bo'ladi.

Olim N.I. Matuzov huquqiy nigilizmni huquqiy ongning deformatsiyasi sifatida baholab, uning asosiy sabablariga huquqni noto‘g‘ri qo‘llash, adolatsizlik holatlari va aholining huquqiy savodxonligi pastligini kiritadi. Uning fikricha, huquqiy nigilizm kuchaygan jamiyatda huquqbuzarliklar soni ortib, ijtimoiy barqarorlik izdan chiqadi. O‘zbekistonlik olim B.T. Ismoilov ham huquqiy nigilizm masalasiga alohida e‘tibor qaratib, huquqiy tarbiyaning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganini ushbu holatning asosiy sabablaridan biri sifatida ko‘rsatadi. U huquqiy ta‘lim va tarbiyani maktabgacha ta‘limdan boshlab uzluksiz olib borish zarurligini ta‘kidlaydi.

Bunga biror holatlarni misol qilib keltiradigan bo‘lsak, shaxs avtobusda chipta olmaysiz, deb o‘ylaydi va qat‘iy nazorat bo‘lmasligini bilib, chipta olmay yuradi. Bu oddiy voqea qonun va qoidalarni inkor etish, huquqiy nigilizmning kundalik hayotdagi ko‘rinishidir. Va yana talaba imtihon vaqtida qoidalarni buzib, ko‘chirishni odatiy hol deb hisoblaydi va buning qonunga xilof ekaniga ahamiyat bermaydi. Bu holat huquqiy normalarga bepisand munosabat — huquqiy nigilizmni ifodalaydi.

Huquqiy idealizm — huquqning imkoniyatlarini haddan tashqari oshirib baholash, barcha ijtimoiy muammolarni faqat qonunlar orqali hal etish mumkin, degan noto‘g‘ri qarashdir. Bunday yondashuv amaliyotda kutilgan natijani bermaydi va huquqiy tizimga nisbatan umidsizlikni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli huquqni real imkoniyatlari doirasida tushunish va qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Huquqiy idealizm esa huquqning imkoniyatlarini haddan tashqari bo‘rttirib baholash, barcha ijtimoiy muammolarni faqat qonunlar orqali hal etish mumkin, degan qarash bilan izohlanadi. Bu tushuncha huquqiy nigilizmga qarama-qarshi bo‘lsa-da, mohiyatan huquqiy ongning noto‘g‘ri shakllanishiga olib keladi. S.S. Alekseyev huquqiy idealizmni huquqni mutlaqlashtirish natijasida yuzaga keladigan nazariy xato sifatida baholaydi. Olim V.V. Lazarevning fikricha, huquqiy idealizm qonunlarning real hayot bilan uyg‘unlashmasligi natijasida jamiyatda huquqdan ko‘ngil sovish holatini yuzaga keltiradi. Ya‘ni, haddan tashqari umid bilan qabul qilingan qonunlar amaliyotda kutilgan natijani bermasa, bu oxir-oqibat huquqiy nigilizmga olib kelishi mumkin.

Bunga hayotiy misol keltirsak, bir o‘qituvchi barcha talabalar uchun “agar ular faqat qoidalarga amal qilsa, mukammal jamiyat bo‘ladi” deb o‘ylaydi va faqat qoidalarni tushuntirishga e‘tibor qaratadi, amaliyotdagi muammolarni hisobga olmaydi. Bu oddiy voqea huquqiy idealizmning hayotiy ko‘rinishi sifatida qaraladi. Hamda, mahalla faoli yangi qaror qabul qilinsa, jinoyatchilik darhol yo‘qoladi, deb o‘ylaydi va tarbiyaviy ishlar hamda ijtimoiy muhitning rolini hisobga olmaydi. Bu huquqning imkoniyatlarini mutlaqlashtirish, ya‘ni huquqiy idealizmga misoldir.

Shu bois, huquqiy tarbiya jarayonida huquqning nafaqat normativ jihatlari, balki uning amaliy imkoniyatlari, ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog‘liqligi ham tushuntirilishi lozim. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, qonunlar hayot bilan chambarchas

=====

bog‘liq bo‘lib, inson manfaatlariga xizmat qilgandagina o‘z samarasini beradi. Bu fikr huquqiy idealizm va nigilizm o‘rtasida muvozanatni saqlash zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy tarbiya jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlashning asosiy omillaridan biridir. Huquqiy nigilizm va huquqiy idealizm huquqiy tizimga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi holatlar bo‘lib, ularni bartaraf etish faqat puxta va tizimli huquqiy tarbiya orqali amalga oshiriladi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat yuksak bo‘lgan jamiyatgina haqiqiy huquqiy davlat qurishga qodir bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997-yil.
2. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik / Mas‘ul muharrir: X.T. Odilqoriyev. – Toshkent: Adolat, 2018-yil.
3. Odilqoriyev X.T., Ismoilov B.I. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: TDYUI nashriyoti, 2016-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023-yil.
5. Saidov A.X. Inson huquqlari va huquqiy davlat. – Toshkent: Adolat, 2014-yil.
6. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi (PF-158-son).
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel)